

**ANALYSIS OF THE WORKS «AL-MUQADDIMA AL-MUTARRIZIYYA» AND «AL-MISBAH»****Bakhodir Kadirjanovich Yuldashev**

Senior Lecturer

Department of Eastern Philology

"Yangi asr" University

yuldashev.b.k@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Nahw (syntax), grammar, linguist, Basra, Damascus, Baghdad, atetethas, Mutarriz, Mutarrizi, comparative evidence, muftada (subject), marfu' (nominative case), mansub (accusative case), majrur (genitive case), element, theory of governance (Amil theory), methodology, grammatical schools.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article discusses the teacher-student relationship in the context of learning and teaching the Arabic language, its specific characteristics, and the distinctive features of grammatical schools. At the same time, it explores the antithesis between the works of two great historical grammarians, Mutarriz and Mutarrizi; despite the similarity of their pseudonyms, their linguistic works demonstrate diverse approaches to language teaching. The article provides a scientific and structural analysis of the works of these two scholars, highlighting their similarities and differences.

«AL-MUQADDIMA AL-MUTARRIZIYYA» VA «AL-MISBAH» ASARLARI TAHLILI**Baxodir Kadirdjanovich Yuldashev**

Katta o'qituvchi

Sharq filologiyasi kafedrasida

"Yangi asr" universiteti

yuldashev.b.k@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Nahv, grammatika, tilshunos, Basra, Dimashq, Bag'dod, ateteza, Mutarriz, Mutarriziy, qiosiy dalil, muftado, marfu', mansub, majrur, unsur, omillar nazariyasi, metodologiya, grammatika maktablari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilini o'rganish va o'rgatish borasida ustoz va shogird munosabatlari, ularning o'ziga xosliklari, grammatika maktablarining xos hislatlari haqida so'z boradi. Shu bilan birga ayni xosliklar tarixdagi ikki buyuk nahvshunos olim Mutarriz va Mutarriziyning tahalluslari bir xilligi, ammo, tilshunoslikdagi

asarlarida til o'rgatish yondoshuvlari turli xil ekanligi bilan ularning orasidagi asarlar atetezasi talqin etiladi. Ikki allomaning asarlari ilmiy va atrkibiy jihatdan tahlil, qilinib, o'xshash va farqli tomonlari keltirib o'tilgan.

АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ «АЛЬ-МУКАДДИМА АЛЬ-МУТАРРИЗИЙЯ» И «АЛЬ-МИСБАХ»

Баходир Кадиржанович Юлдашев

Старший преподаватель

Кафедра восточной филологии

Университет «Янги аср»

yuldashev.b.k@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Нахв (синтаксис), грамматика, лингвист, Басра, Дамаск, Багдад, атитеза, Мутарриз, Мутарризи, сравнительное доказательство, мубтада (подлежащее), марфу (именительный падеж), мансуб (винительный падеж), маджрур (родительный падеж), элемент, теория факторов (теория амиля), методология, грамматические школы.

Аннотация: В данной статье рассматриваются отношения между учителем и учеником в процессе изучения и преподавания арабского языка, их специфические особенности, а также характерные черты грамматических школ. Наряду с этим, на примере двух великих историков-языковедов — Мутарриза и Мутарризи, чьи псевдонимы схожи, анализируется антитеза их произведений, проявляющаяся в различных подходах к преподаванию языка. В статье проводится научно-структурный анализ трудов обоих ученых, выделяются их сходства и различия.

Kirish. XI-XIII asrlarda Mavarounnahr va Xuroson hududlarida turli sohalardagi ilmiy izlanishlar ustida ishlar olib borish jadallashgan. Jumladan, arab tili bilimlari, lug'atshunosligi va adabiyotini o'rganish borasida yangi ilmiy qarashlar bilan ushbu sohalarga bir qator allomalar kirib kelganlar. Turli ilmiy nazariyalar va fikrlar butun arab xalifaligi ostidagi hududlarda tarqala boshlagan. Ma'lum sohada ilmiy qarashlarning ko'payishi o'z navbatida bir qancha fikrlar va yondoshuvlarni yuzaga keltirgan.

XI-XIII asrlarda Mavarounnahr va Yaqin Sharq hududlarida bir necha nazariyalarga asoslangan usulda arab tilining grammatik qoidalari ishlab chiqila boshladi. Ushbu manbalarining maqsadi bir – arab tili qoidalarini oson yo'l bilan tezlikda yetkazish bo'lgani tarix manbalaridagi ma'lumotlardan ma'lum. Ana shunday o'ziga xos uslub bilan arab tili grammatikasi qoidalarini sharhlagan qisqa manbalardan biri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali As-Sulamiy Al-Mutarriz qalamiga mansub «Al-Muqaddima Al-Mutarriziyya» (bundan keyin «Muqaddima» deb keladi)

kitobi hisoblanadi. Ushbu kitob o'z davrida o'quvchilar tomonidan qisqa risola shaklidagi mashhur manba bo'lgan. Ko'pgina olimlar uning mashhurligi keltirilgan qoidalar Abulqosim Az-Zujajiyning «Al-Jumal» va Ibn Jinniyning «Al-Lama'» asarlarning tartibotiga asoslanganligida deb hisoblaydilar. Shu sababdan ushbu kitobning tarkibiy va sintaktik jihatlarini tahlil etishni zarur deb hisobladik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'rta Osiyolik Mutarriziy va Yaqin Sharqlik Mutarrizning asarlarini tadqiq etish shuni ko'rsatdiki, bu allomalarning har xil hududda va turli zamonlarda yashaganlari ularning asosiy metodologik uslublarida farqni ifoda etmagan. Ular qiyosiy maktab uslubi bilan o'zlarining asosiy asarlarini yozib o'z zamonlarining mashur grammatik olimiga aylanganlar. Uslubiyat va nazariyalar borasida yanada aniq xulosaga kelish maqsadida ularning har birining asarlarini alohida tadqiq etamiz.

Mutarriz o'z kitobini so'zning uch qismi (ism, fe'l va harf) bayoni bilan boshlagan va har bir qismning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirgan. So'ngra u kitobning yigirma yetti bobdan iborat bo'limlarini tarkibiga kirishgan. Unda o'quvchiga nahv ilmidan (grammatikadan) zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etgan. U avval «E'rob bobi» (kelishik) bilan boshlab, e'robning turlarini, e'rob harfining o'rmini hamda e'rob qilinadigan (kelishikda turlanadigan) so'zlarni bayon qilgan.

Keyin esa har bir holat uchun alohida bob ajratgan:

1. «Raf' bobi» (bosh kelishik holati)
2. «Nasb bobi» (tushum kelishigi holati)
3. «Jar bobi» (qaratqich/chiqish kelishigi holati)
4. «Jazm bobi» (fe'llardagi jazm holati)

Har bir bobda ularning belgilarini, ushbu holatlar keladigan o'rinlarni keltirib, har biriga misollar keltirgan.

So'ngra «Marfu'otlar» (raf' holatidagi ismlar)ga o'tib, «Marfu' ismlarni tanish bobi»ni qo'ygan va ularni umumiy sanab o'tgan. So'ngra fe'liy gap egasiga o'xshash bo'lgan ikki tur uchun alohida bob ajratgan:

1. «Kana va uning sheriklari bobi»
2. «Inna va uning sheriklari bobi» Ushbu bo'limlarda ularning sheriklarini sanab,

misollar bilan tushuntirgan.

Undan keyin «Mansubotlar» (nasb holatidagi ismlar)ni keltirgan va «Mansub ismlarni tanish bobi»ni qo'ygan. Bu yerda barcha «maf'ullar»ni (to'ldiruvchi turlarini) tafsilotlarsiz, umumiy sanab o'tgan. So'ngra maf'ulga o'xshash har bir holat uchun mustaqil bob ajratgan:

1. «Hol bobi»
2. «Tamyiz bobi»

3. «Istisno bobi»

4. «Nido yuklamalari bobi» (Buni maf'ullar qatoriga qo'shgan, chunki u ham maf'ullardan sanaladi) va unda nido etiluvchining turlari va hukmlarini batafsil bayon qilgan.

Oxirida esa «Majrurotlar» (jar holatidagi ismlar)ga o'tib, «Majrur ismlarni tanish bobi»ni qo'ygan. Uning ostida jar harflari va izofani (qaratqichli birikma) keltirib, ikkalasiga ham misollar bergan.

So'ngra «Tavobe'lar» (ergashgan so'zlar)ni keltirgan va «E'robda ismga ergashadigan so'zlar bobi»ni qo'ygan. Unda ergashuvchi so'zlarni umumlashtirgan va har bir ergashuvchi uchun alohida bob ajratgan: «Vasf (sifat) bobi», «Ta'kid bobi» (ta'kid yuklamalari), «Badal bobi» (izohlovchilar), «Atful bayon bobi» (yuklamalar) va «Atful huruf bobi» (ko'makchilar).

Hatto, harf orqali bog'lanish (atful huruf) mavzusida uning to'rt turini bayon qiladi: bog'lovchi, jar qiluvchi, ibtidoiya (boshlovchi) va nasb qiluvchi.

Keyin esa «Lā fin-nafiy (inkor yuklamasi) bobi»ni qo'ygan va uning qurilish shartlarini, bu harf takrorlangandagi ismining hukmini va uning sifatining hukmini keltirgan.

Buning ortidan «Fe'llarning e'robi va qurilishini tanish bobi»ni keltirib, unda muzori' fe'lining (hozirgi va Hozirgi va kelasi zamon fe'li) uchta holati: raf', nasb va jazm haqida umumiy so'z yuritgan. So'ngra buni uchta bobga ajratgan:

1. «Hozirgi va kelasi zamon fe'lini nasb qiluvchi harflar bobi»
2. «Jazm harflari bobi»
3. «Shart va uning javobi bobi»

Kitobni «Sarf bo'ladigan (turlanadigan) va sarf bo'lmaydigan (turlanmaydigan) so'zlar bobi» bilan yakunlagan. Unda turlanishni (tanvinni) man qiluvchi to'qqizta sabab va mezonlarni keltirgan, shuningdek, qabilalar, tirik mavjudotlar, suralar va shaharlar nomlarini misol qilib ko'rsatgan. Shu bilan kitob boblari yakuniga yetgan.

«Muqaddima», Az-Zujajiyning «Al-Jumal» va Ibn Jinniyning «Al-Lama'» asarlari o'rtasidagi bog'liqlik:

Kitobning ba'zi nusxasining boshida bu muqaddima Az-Zujajiyning «Al-Jumal» asarining qisqartmasi ekanligi qayd etilgan. Avvalgi tadqiqotchilar buni tasdiqlagan va shunday degan: «Aslida bu muqaddima bitta kitobning, ya'ni Az-Zujajiyning «Al-Jumal» asarining qisqartmasidir... Agar birinchi sahifadagi kotibning qaydi bo'lmaganda edi, uning Az-Zujajiyning «Al-Jumal»i bilan bog'liqligini aniqlash uchun nahv ilmida katta mehnat talab qilinar edi». (Az-Zujaji, 2001, p. 6)

Ushbu matnda «Muqaddima» asari faqat bitta kitobning, ya'ni «Al-Jumal»ning qisqartmasi ekanligini qat'iy ta'kidlangani ko'rinadi. Mutarrizning uslubi «Al-Jumal» asari bilan mos kelishini, xususan 568-570-sahifalarda bu muvaffaqiyatli qisqartma ekanligi qayd etilgan.

Shuningdek, Mutarrizning Az-Zujajiydan farq qilgan o‘rinlari ko‘rsatib o‘tilgani ham tahsinga loyiqdir.

Biroq, doktor Abdulaziz bin Solih Al-Umariy tadqiqotchining «Muqaddima» faqat bitta kitobning («Al-Jumal»ning) qisqartmasi degan fikriga to‘liq qo‘shilmaydi. U ushbu kitobning Ibn Jinniyning «Al-Lama’» asari bilan bog‘liqligi kuchliroq, ishonchliroq va yaqinroq deb hisoblaydi. «Muqaddima»ni «Al-Lama’» kitobi bilan solishtirganida, Mutarriz undagi boblarga ajratish tizimiga ergashganini, lafzlarini (so‘zlarini) xulosalaganini aniqlaydi. (Al-Omari, 2023, p. 16)

Bu esa kitobning Az-Zujajiy kitobi bilan aloqasini inkor etmaydi. Ushbu ikki kitob o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha aniqlashtirish mumkin.

«Muqaddima»ning «Al-Jumal» bilan bog‘liqligi:

«Al-Jumal» kitobi nahv ilmida yuksak mavqega ega, u xalq orasida keng tarqalgan va unga juda ko‘p sharhlar yozilgan. Al-Yofiiy aytganidek: «ba’zi Mag‘rib ulamolari uning kitobiga 120 ta sharh borligini aytishgan». (Al-Yafi’i, 1997, p. 26) Mutarriz ham ushbu kitobdan yaqqol foydalangan bo‘lishi mumkin. Kitobning «Al-Jumal»ga asoslangan qisqartma ekanligiga dalil shuki, Mutarriz kitobining muqaddimasidagi «Kalom qismlari» va dastlabki beshta bob – E’rob, Raf’, Nasb, Jar va Jazm boblarining nomlanishi va tartibi «Al-Jumal»dan olingan. Hatto uning birinchi (E’rob bobi) va ikkinchi (E’rob belgilarini tanish bobi) boblaridagi so‘zlar ham aynan o‘sha erdan olingan.

Bunga qo‘shimcha ravishda, Az-Zujajiy ko‘p ishlatadigan ba’zi iboralarning takrorlanishini ham ko‘rish mumkin, masalan: ko‘plab o‘rinlarni yakunlashda ishlatilgan «va shunga o‘xshashlar» (وما أشبه ذلك) iborasi bunga misoldir.

Ushbu foydalanish va yaqinlikka qaramay, Mutarriz o‘z kitobida hamma narsada ham Az-Zujajiyga ergashavermagan, balki bir necha jihatdan unga xilof (farqli) yo‘l tutgan. Ulardan ba’zilari quyidagilardir:

Birinchidan – Mutarriz «Al-Jumal» asaridagi ba’zi boblarni keltirgan, biroq ularning ko‘pini tashlab ketgan. Bu esa asl manbaning faqat bir qismi bilan cheklanadigan qisqartma (muxtasar) asarlarning tabiatidir. Mutarriz Az-Zujajiy keltirgan mavzulardan faqat yigirma yettitasi bilan kifoyalangan. U «Imola», «Idg’om» va «Vaqf» (to‘xtash qoidalari) kabi fonetik (tovushga oid) boblarni keltirmagan. Shuningdek, «Ismlarning yasalishi», «Ikkilik», «Ko‘plik», «Tasg’ir» (kichraytirish) va «Nisbat» kabi sarfga (morfologiyaga) oid boblarni ham kiritmagan. Nahvga (grammatikaga) oid ba’zi boblarni ham tushirib qoldirgan, masalan: «Yaqinlashish fe’llari» (af’alul muqoraba), «Nudba» (nido turi), «Istig’osa» (nido yuklamasi ishlatilish holati), «Ishtig’ol» (to‘ldiruvchining kelishiga oid qoida), «Tanazu’» (fe’llarning qo‘llanishiga oid qoida), «Qasam»

(qasamyod), «Taajjub», «Ni'ma va Bi'sa» (maqtov va tahqirlash fe'li), «Sonlar», «Hikoya» va boshqalar.

Ikkinchidan – Boblarning tartibidagi tafovut masalasida Mutarriz o'z kitobidagi boblar tartibida Az-Zujajiyga ergashmagan, balki bu masalada unga xilof yo'l tutgan. Bunga misollar:

1) Mutarriz «Tavobe'lar» (ergashuvchi so'zlar) bobini Marfu'ot, Mansubot va Majrurotlardan keyin keltirgan, bu esa mantiqiy tartibdir. Az-Zujajiy esa ularni kitobining avvalida, dastlabki uchta bobdan (E'rob, Fe'llar, Fe'liy gap egasi va Maf'ul bihi (to'ldiruvchi)) keyinoq keltirgan edi.

2) Shuningdek, «Sarflanmaydigan (turlanmaydigan) ismlar» bobi: Mutarriz uni kitobning eng oxiriga qo'ygan. Az-Zujajiyda esa bu bob Mansubotlar bo'limidan, ya'ni «Istisno», «Inkor Lā-si» va «Tamyiz» boblaridan oldin kelgan.

Uchinchidan – Istilohlardagi (terminlardagi) tafovut: Mutarriz o'zi qo'llagan ba'zi terminlarda Az-Zujajiyga xilof yo'l tutgan. Masalan, u «Maf'ulun lahu» (sabab to'ldiruvchisi) terminini ishlatgan bo'lsa, Az-Zujajiy esa «Maf'ulun min ajlihi» atamasini ishlatgan.

To'rtinchidan – Az-Zujajiy tarqoq holda keltirgan mavzularni umumlashtirgan. Bunga misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1) Az-Zujajiy sarf (turlanish) man qilingan ismlar haqida ikkita alohida bob qo'ygan: «Sarf bo'lmaydigan (turlanmaydigan) ismlar bobi» hamda «Qabilalar, tirik jonzotlar, suralar, va shaharlar nomlari bobi». Mutarriz esa faqat bitta – «Sarf bo'lmaydigan ismlar bobi» bilan kifoyalangan va qolgan mavzularni (qabilalar, shaharlar nomlarini) turlanishni man qiluvchi sabablar haqidagi umumiy ma'lumot ichiga kiritib yuborgan.

2) Yana bir misol: Az-Zujajiy Hozirgi va kelasi zamon fe'lining nasb holati haqida ikkita bob ajratgan: «Hozirgi va kelasi zamon fe'lini nasb qiluvchi harflar bobi» va «Fā harfi bilan jazm qilish bobi». Mutarriz esa faqat «Hozirgi va kelasi zamon fe'lini nasb qiluvchi harflar bobi» bilan kifoyalangan va «fā» harfi bilan bog'liq qoidalarni shu bobning ichiga kiritgan.

Beshinchidan – Mutarriz Az-Zujajiy bitta bobda jamlagan ba'zi masalalarni bir-biridan ajratishga harakat qilgan. Masalan, «E'rob belgilarini tanish bobi»da Az-Zujajiy raf', nasb, jar va jazm belgilarini hamda har bir e'rob o'rni belgilarini bitta bobda jamlab keltirgan edi. Mutarriz esa bularni to'rtta alohida bobga ajratib yuborgan, bular: «Raf' bobi», «Nasb bobi», «Jar bobi» va «Jazm bobi»dir.

Oltinchidan – Mutarriz ba'zi boblarda Az-Zujajiy to'xtalib o'tmagan yoki qisqa qoldirgan o'rinlarga qo'shimchalar kiritgan. Bunga quyidagilar misol bo'ladi:

1) Inkor Lā-si (لا في النفي) bobida: Bog'lovchi va jinsni inkor qiluvchi «Lā» harfi takrorlanganda joiz bo'lgan holatlar haqida so'z ketganda, Az-Zujajiy faqat uchta holat bilan

kifoyalani, bunga atigi bitta she'riy dalil keltirgan. Mutarriz esa bu borada beshta mumkin bo'lgan holatni batafsil bayon qilgan va ularga dalil sifatida uchta oyat (ulardan ikkitasi qiroat turlari bilan) hamda to'rtta she'riy dalil keltirgan.

2) Hozirgi va kelasi zamon fe'lini nasb qiluvchi harflar bobida: Az-Zujajiy nasb qiluvchi harflarni ularning amali (ishlashi) haqida batafsil to'xtalmasdan jamlab keltirgan. Mutarriz esa bu harflarni ikki qismga ajratgan:

1. O'z-o'zidan nasb qiluvchi beshta harf.
2. Yashirin «an» (أَنْ) harfi yordamida nasb qiluvchi beshta holat.

Yettinchidan – Mutarriz bir qancha boblarda Az-Zujajiy keltirgan ma'lumotlarning faqat bir qismi bilan kifoyalangan. Bu holat tabiiy qabul qilinadi, chunki asarni qisqartirishga bo'lgan intilish shuni taqozo etadi. Masalan, Mutarriz «Jazm qiluvchi harflar bobi» hamda «Shart va uning javobi bobi»da faqat jazm qiluvchi vositalarni sanab o'tish, ularga misollar keltirish shartning javobiga «fā» harfi kirish hukmini aytish bilan cheklangan.

Az-Zujajiy esa bu mavzuni to'rtta bobda juda batafsil bayon qilgan:

1. Hozirgi va kelasi zamon fe'lini jazm qiluvchi harflar bobi (bunda jazm belgilari ham aytilgan).
2. Buyruq va qaytariq (amr va nahy) bobi.
3. Javobda jazm bo'ladigan o'rinlar bobi (Mutarriz buni umuman tilga olmagan).
4. Jazo (shart gapning javobi) bobi. Unda «fā» harfi kirsā javob qanday bo'lishi, shart va javob orasidagi fe'lga doir qoidalar, qachon jazo bekor bo'lishi va boshqa ko'plab grammatikaga oid o'quvchi uchun zarur bo'lmagan tafsilotlar keltirilgan.

Shuningdek, Mutarrizning «Muqaddima» asarining «Al-Lama'» asari bilan bog'liqligi jihatlarini ham bor.

Mutarriz o'z kitobida Ibn Jinniyning yo'lidan ham borgan. Shuning uchun ham «Muqaddima»ni, yuqorida aytib o'tilgan (Az-Zujajiyga xos bo'lgan) dastlabki beshta bobni istisno qilganda, Ibn Jinniyning «Al-Lama'» asarining qisqartmasi deb aytish haqiqatga yaqinroqdir.

Shuningdek, ikki kitob o'rtasidagi o'xshashliklar quyidagi jihatlarda namoyon bo'lishi ko'rishimiz mumkin:

Birinchidan – Kitob boblarining tartibida. Agar Mutarriz tushirib qoldirgan boblarni hisobga olmasak, u deyarli barcha boblar tartibida Ibn Jinniyga ergashgan. U Ibn Jinniy tartibiga faqat juda kam holatlarda xilof yo'l tutgan.

- 1) «Inkor Lā-si bobi»: Ibn Jinniy bu bobni «Inna va uning sheriklari» bobidan keyin keltirgan, Mutarriz ham xuddi shunday qilgan.

2) «Nido bobi»: Ibn Jinniy bu bobni «Tavobe'lar» (ergashuvchi so'zlar) bobidan keyin keltirgan, Mutarriz ham shunday tartiblagan.

3) «Nakra va Ma'rifa bobi» (noaniq va aniq holat): Ibn Jinniy buni ham «Tavobe'lar»dan keyin keltirgan bo'lsa, Mutarriz uni «Maf'ullar»dan (to'ldiruvchilardan) keyin keltirgan. Mutarriz bu o'zgarishni nido maf'ullardan biri bo'lgani uchun uni oldinroq keltirish lozimligi bilan izohlagan.

Ikkinchidan – Ibn Jinniy iboralaridan lafzan foydalanish borasida Abdulaziz bin Solih Al-Umariy: «Men har ikki kitobni o'zaro solishtirib chiqdim va Mutarriz ko'pgina boblarda Ibn Jinniyning iboralarini xulosalab (qisqartirib) olganini, har bir bobda keltirilgan batafsil ma'lumotlarni yengillashtirganini aniqladim», (Al-Omari, 2023, p. 34) deydi. Bu holat ikki kitobni qiyoslagan kishi uchun tushunarli holatdir. Mutarrizning iboralarni ko'chirish darajasi, keltirgan dalillari, qiroat turlari va she'riy dalillari qanchalik ko'p ekanini ko'rish uchun, masalan, «Inkor Lā-si bobi» ga nazar tashlash kifoya qiladi.

Uchinchidan – «Al-Jumal» va «Al-Lama'» asarlaridan bir vaqtda foydalanilgan. Qiziqarli jihati shundaki, Mutarriz ba'zi boblarda ham Az-Zujajiy, ham Ibn Jinniyning yo'lidan borishga harakat qilgan. Bunga «Sifat (na't) bobi» misol bo'la oladi. Mutarriz ushbu bobda Ibn Jinniyning iboralarini aniq ko'chirib olgan, biroq «Nakra va Ma'rifa» haqidagi so'zlarni kiritishda, ya'ni «ma'rifa sifatlanmaydi» deb aytilgan o'rinda – Az-Zujajiyga ergashgan.

Mana shu ikki kitobning o'zaro qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, Mutarriz o'z «Muqaddima»sida ushbu ikki manbaga tayangan, biroq uning asari «Al-Lama'» ga yaqinroqdir.

Yuqoridagi tahlil etib o'tilgan asar bilan bir qatorda muhimligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi yana bir asar Abulfath Nosiruddin Al-Mutarriziyning «Al-Misbah» (bundan keyin «Misbah» deb keladi) asaridir. Ushbu asar ko'p jihatdan Mutarrizning «Muqaddima»siga o'xshab ketadi. Birinchidan, ularning mualliflarining kunyasi o'xshashligi. Ikkala alloma ham bir taxallus ostida ijod etib, xalq orasida va ilm ahli ichida arab tili grammatikasi sohasiga o'ziga xos yondoshuvlari bilan shuhrat qozonganlar. Ikkinchidan, ular shuhrat keltirgan ushbu asarlarida o'zlaridan avvalgi o'tgan ustoz allomalarning sintaktik qoidalarning sharhlash yo'lini tutganlar va uslubiyatlaridan foydalangan holatda asar yozganlar. «Misbah» asarini yozishda Mutarriziy milodiy 1009-1078 yillarda Xuroson o'lkalarida mashhur bo'lgan Abduqohir Jurjoniyning «Al-Jumal», «Mi'atu amil» va «At-tatimma» asarlariga tayanganini o'z asarida e'tirof etib o'tgan. «Misbah» asariga kirish qismida alloma shunday yozadi:

فوجدتها أكثرها تعاوراً بين الأئمة (المائة) و(الجميل) و(التتمة)، فاستطلت أن أكلف جمعها، وأحمله رقمها، كراهة ما فيها من الأشياء المعادة، وإن كانت لا تخلو من الإفادة. فاستصفيت منها هذا المختصر، ونفيت

عن كل منها ما يتكرر، استئقلاً للمُعاد، واستقلاً للمفاد، غير مدخر فضل النصيحة، في رعاية عباراته الفصيحة، ولم أطو ذكر شيء من مسائلها إلا ما ندر، أو شاع فيما بينهم وانتشر.

(Al-Mutarrizi, 2001, p. 2)

«Men (o'rganilayotgan) bu kitoblarning aksariyati — «Al-Mi'a» (Yuz omil), «Al-Jumal» va «At-Tatimma» kabi peshvo olimlarning asarlari orasida mavzularning o'zaro bir-birini takrorlanishini ko'rdim. Ularni (shundoq holicha) jamlashni va ularni yozish mas'uliyatini zimmamga olishda ma'lumotlarni uzun deb bildim, chunki ularda foydali ma'lumotlar bo'lishiga qaramay, narsalarning qayta-qayta takrorlanishini xushlamadim.

Shuning uchun, takrorlardan qochish va mazmunni (mustaqil) ifodalash maqsadida ulardan ushbu «Muxtasar»ni (qisqartmani) saralab oldim va har biridagi takrorlanadigan joylarni chiqarib tashladim. Bunda tavsiya qilish fazilatini va asarning iboralari fasohatli (ravon) bo'lishini e'tibordan chetda qoldirmadim. Ushbu kitoblardagi masalalarning deyarli barchasini zikr qildim, faqat juda kam uchraydigan yoki ulamolar orasida shundoq ham mashhur bo'lib, keng tarqalgan narsalarnigina tushirib qoldirdim».

Uchinchidan, alloma Mutarriz va Mutarriziy ustozlar uslubiyatini o'ziga yo'l qilib olgani holda yozgan ushbu asarlarining asosiy tayanchi bo'lmish kitobning nomi «Al-Jumal» hisoblanadi. Bu borada shuni aytib o'tish kerakki, Mutarriziy o'z asarini yozishda alloma Jurjoniyning asariga ko'proq suyanib, omillar nazariyasi uslubidan foydalanadi. Abdulqohir Jurjoniyy va Abu Abdulloh Muhammad Al-Mutarriz bir davrda yashab ijod etgan, hamda ularning uslubiyat bo'yicha ustozlari Abu Ali Al-Forsiy va Ibn Jinniy hisoblanadi. Sanad jihatdan qaraydigan bo'lsak, bu ikki alloma o'z navbatida Abulqosim Az-Zujajiyning shogirdlari hisoblanadi. Az-Zujajiy Abu Is'hoq Az-Zujajda ta'lim olganini, u alloma esa Abul Abbas Al-Mubarradning shogirdi bo'lganini, Mubarrad esa Abu Usmon Al-Maziniydan ta'lim olganini tarixiy ma'lumotlardan bilshimiz mumkin. Al-Maziniygacha alloma Sibavayhining omillar nazariyasiga oida qarashlari uning «Al-Kitab» asari orqali yagona vositachi sifatida tanilgan alloma Al-Axfash Al-Akbar orqali kelgani ta'kidlanadi. Ushbu nazariyaning dastlabki kelib chiqishi esa mashhur alloma qiyosiy va naqliy uslubiyat otasi Al-Xalil ibn Ahmad Al-Farahidiyga borib taqaladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib biz bu ikki allomaning asarini qiyosiy o'rganish maqsadida «Misbah» asarining alloma Jurjoniyning «Al-Jumal» asariga o'xshash va farqli tomonlarini tahlil etdik.

«Misbah»ning boblarga ajratilish uslubi. Alloma Mutarriziy «Misbah» asarini beshta asosiy bobga bo'ladi:

1. Grammtik tuzatishlar bobi.

2. Lafziy qiyosiy omillar bobi.
3. Lafziy sama'iy omillar bobi.
4. Ma'naviy omillar.
5. Arab tili qoidalari bobi.

Birinchi bobda umumiy kalom va e'rob masalasiga (ism, fe'l, harf) to'xtalib o'tadi. Jumlaning umumiy ta'rifi va turlarini, shu bilan birga gapning tuzilishiga oid qoidalarni beradi. Birinchi bobni ikki faslga bo'lib o'rganadi:

- 1) E'rob fasli;
- 2) Ismlar fasli.

Shundan so'ng omillar nazariyasiga oid qoidalar asosida jumalarning sintaktik qoidalarini lafziy va ma'naviy omillarga bo'lib o'rganishga kirishadi. Lafziy omillarni ikki turga: qiyosiy va sama'iy omillarga bo'ladi. Lafziy qiyosiy omillarni yeti turga bo'lib o'rganadi:

- 1) Fe'l va unga aloqador barcha shakllar va zamonlar;
- 2) Ismu fa'il (sifatdoshning aniq darajasi), ya'ni ish harakatning bajaruvchisi;
- 3) Ismu maf'ul (sifatdoshlarning majhul darajasi), ya'ni bajarilgan ish harakati natijaviyligi;
- 4) Sifat mushabbaha (sifadosh vazifasida ham kela olishi mumkin bo'lgan sifat vaznlari);
- 5) Masdar (harakat nomi);
- 6) Muzof (qaratqichli moslashuvdagi birinchi bosh bo'lak, qaralmish);
- 7) Ismu tam (tamyiz va ularning o'rinlari).

Har bir mazvuda grammatik qoidalarni yetarli darajada sharhlab, ularni misollar bilan to'ldirgan.

Uchinchi bobda esa lafziy sama'iy omillarga to'xtaladi. Ularni uchta katta sinfga ajratadi. Harflar, ismlar va fe'llar kabi. Ushbu sama'iy qoidalarni harflar sinfiga taalluqli turlar bilan boshlaydi. Bunda ikkita asosiy turga e'tibor qaratadi. Ismlarda ishlaydigan qoidalar va fe'llarda qo'llaniladigan qoidalar. Ismga oid qoidalar ham o'z navbatida bir so'zda va jumlada qo'llaniladigan qoidalar kabi alohida kichik faslga bo'linadi. Bir so'zlardagi qoidalar turkumi fasli majrur va mansub holat kabi ikki qismga bo'linadi. Majrur holatiga «harfu jarlar» (old ko'makchilar) kirsar, mansub holatiga «و» harfidan keyin keluvchi so'zlar, nido yuklamari va «لا» istisno yuklamarini kiritadi.

Jumlada qo'llaniluvchi qoidalar turkumi faslini ham ikki turga ajratadi:

- 1) Marfu'dan avval mansub holatda keladigan ismlar: bularga «Inna va uning sheriklari» turkumidagi yuklamarni kiritadi.

Ikkinchidan, e'robda sarflanadigan va sarflanmaydigan so'zlarning ta'rifi keltirilishi ham bir xilda.

Uchinchidan, Mabniy so'zlar oid qoidalar lafzda ham tartibda ham o'xshash keltirilgan.

To'rtinchidan, lafziy qiyosiy omillar bobidagi to'rt fasl bir-biriga o'xshash tarzida kelgan. Bular ismu fa'il, ismu maf'ul, sifat mushabbaha va masdar fasllaridir.

Beshinchidan, «Misbah»dagi barcha qoidalar «Al-Jumal»dagi barcha qoidalar bilan lafzan bir xilda desak adashmaymiz. Zero, ikkala alloma ham Abu Ali Al-Forisiy uslubiyati davomchilari o'laroq omillar nazariyasiga tayanib qoidalarni keltirgan. Mutarriziy ham asarining boshida Jurjoniyning fikrlarini rad etmagan, aksincha, uni qo'llab quvvatlagan holda faqat tartibotga ko'proq e'tiborni qaratishini keltirib o'tadi.

«Misbah» asari va Jurjoniyning «Mi'atu amil» asari o'rtasidagi o'xshashlik. Birinchidan, Mutarriziy «Mi'atu amil» asariga ko'proq omillar nazariyasi asosida omillarni turlashda kop'roq tayanadi. Umumiy tarzda omillarning ikkiga: lafziy va ma'naviy tarzida bo'linishi, hamda, lafziy omillarning o'zi ham o'z navbatida qiyosiy sama'iy omillarga turlanishi bu Misbahning dastlabki o'xshashligidir.

Ikkinchidan, lafziy qiyosiy omillar bir xil tarzda yettita turga ajratilib o'rganiladi. Bunda ham qoidalar va boblarning nomi bir xil keladi.

Uchinchidan, lafziy sama'iy omillarning kelishi ham bir xildir. Old ko'makchilar, istisno yukalamalari, inkor yuklamalari, ismlarni nasb qiluvchi yuklamalar, fe'llarni nasb va jazm etuvchilar, fe'llarning xos to'rtta turi, hamda ismlardan sama'iy omillarning kelishi bir xil tarzda ta'riflanadi.

To'rtinchidan, «Misbah» asarida ham Avomil («Mi'atu amil» asari) risolasida kelgani kabi alohida ma'naviy omillar asarning oxirida keladi.

Mutarriziyning «Misbah» asari va Jurjoniyning «Al-Jumal» va Avomil asarlarining o'z navbatida farqli jihatlari ham bor. Bu avvalambor, asarning yozilishidagi metodologik uslubdir. Qoidalarning kelish tartibi olimning muhimlik darsjasiga qarab ajratgani boisidan deb o'ylayman. Omillar nazariyasiga bog'liq holda boblarga ajratilishi Avomil asaridan olingan bo'lsa, ammo tartibotda Mutarriziy avval qiyosiy lafziy omillarni ketiradi, so'ngra sama'iy lafziy omillarni sharhlaydi. Avomilda esa aksincha tartibot kelgan. Shu bilan birga, alloma Jurjoniyning «Al-Jumal» asarida qoidalarni muxtasar beradi, «Misbah»da esa aksariyat omillar borasidagi qoidalar kengroq sharhlanadi. Ko'p qoidalar ikkala asarda o'xshash, hattoki lafzan bir xil bo'lsa ham, ba'zi qoidalarni Mutarriziy yangilik sifatida sharhlaydi. Boblar va fasllarning nomlarida ham bir oz farq bor. Mutarriziy umumiy boblar nomiga ko'proq ahamiyat qaratgan bo'lsa, Jurjoniyning omillar nazariyasi jihatidan qoidalarni kichik fasllarga ajratgan. Shu boisidan ham lafziy yoki ma'naviy omillar borasidagi ba'zi qoidalar tartiboti ikkala asarda bir xil yo'sinda kelmagan.

«Misbah» asarining Avomil asarida bilan yana bir farqli jihati shundaki, alloma Mutarriziy qiyosiy omillarga ajratgan bobi ko'pgina sharharni o'z ichiga olsa, Jurjoniyy qiyosiy omillarni faqat yettita sonini sanaydi, xolos. Bu borada Mutarriziy sharh usuli bilan «Al-Jumal» asariga ham tayanadi. Bir so'z bilan aytganda «Misbah» asari tom ma'noda Jurjoniyyning «Al-Jumal» va Avomil asarlari qoidalari birlashmasining Mutarriziyga xos sharhlar bilan boyitilgan holati desak yanglishmaymiz.

Mutarrizning «Muqaddima»si va Mutarriziyning «Misbah» asari o'rtasidagi bog'liqlik:

Ushbu bo'limda biz ikkita taxallusi bir-biriga o'xshash bo'lgan, ammo turli davrlarda yashagan olimlarning asari o'rtasidagi bo'g'liqlikni ko'rib chiqamiz. Bu ikki allomaning asarlari o'rganilishining o'ziga xos sababi bor. Arab tilshunoslari tarixini o'rganish jarayonida bir necha ma'lumotlarda aynan Mutarrizga tegishli bo'lgan «Al-Muqaddima Al-Mutarriziya»ni O'rta Osiyolik Mutarriziyga tegishli deb keltirilgan. «Mutarriziyning arab tilshunosligiga oida, xossatan grammatikasiga tegishli bir qancha kitoblari bor: ulardan Al-Muqaddima Al-Mutarriziyya nahv kitobi», (Talab, 2011, p. 4) deb misrlik ilmiy tadqiqotchi Abdulhamid Assayyid Tolab o'zining ilmiy tadqiqida keltirgan. Livanning Beyrut shahrida nashr etilgan Mutarriziyning «Al-Mug'orrib fi tartib al-Mu'rib» kitobida shunday keladi: «Alhofiz Alhajj shunday degan: ...Muqaddimatu fi an-nahv kitobi bo'lib, uni «Misbah» deb nomlagan, uni o'qiganlar shunday nom berishgan.» (Al-Mutarriz, 2011, p. 11) Aynan shu kitob «Al-Mug'orrib fi tartib al-Mu'rib»ning 1979-yil Suriyaning Halab shahrida Mahmud Faxuriy va Abdulhamid Muxtor hammuallifligida nashr ettirilgan nusxasida shunday ma'lumot keladi: «4 raqamli (Mutarriziyning) asari Muqaddimatu fi al-Mantiq asari bo'lib, balki shu asar Muqaddima Mutarriziyya nomi bilan mashhur bo'lgan bo'lishi mumkin. Chunki ba'zilar uni Mutarrizga tegishli deb o'ylaydilar. Ammo, Al-Hofiz Az-Zahabiy bu fikrga raddiya berib, asli bu asar hijriy 456-yilda vafot etgan damashqlik alloma Abu Abdulloh As-Sulamiy Al-Mutarrizga tegishli asarligini ta'kidlab o'tgan.» (Fakhoury & Mukhtar, 1979, p. 7) Ushbu fikrlardan kelib chiqib biz bu ikki allomaga tegishli bo'lgan asarlar «Al-Muqaddima Al-Mutarriziya» va «Misbah»ning o'xshash va farqli tomonlarini ilmiy tadqiq etishni muhim vazifa deb hisobladik.

«Al-Muqaddima Al-Mutarriziya» va «Misbah»ning o'xshashliklari:

Birinchiidan, ushbu ikkala asar ham yozilishida bir xil nom bilan o'sha davrda mashhur bo'lgan asarga tayangan. «Al-Mutarriziya» Az-Zujajiyning «Al-Jumal» asariga tananganligini yuqorda ham ko'rib o'tdik. «Misbah» esa Jurjoniyyning «Al-Jumal» risolasiga tayanganligini ham yuqorida ilmiy tadqiq etdik. Bunga qo'shimcha ravishda bu ikki olim ham o'z navbatida qiyos maktabi sohiblari yo'lini tutganini aytib o'timshimiz muhimdir.

Ikkinchiidan, ikkila asarning ham boshlanishi bir xil mavzu bo'lgan. E'rob masalasiga tegishli bo'lgan mazvular ko'pgina asarlarning ham boshlanish bobi bo'lib xizmat qilgan. Aynan

shu tendensiyani ikkala alloma ham o'z asarlarida qo'llagan. Ketma-ketlik borasida ham uzviylik ikki asarda bir xil keladi.

Uchinchidan, marfu'at, mansubat va majrurat fasllarida berilgan so'zlar va yuklamalar tarkib jihatdan bir-biriga o'xshash. Keltirilish tartibi o'zgargan holda bo'lgan, ammo tarkib va ma'no anglatish jihatidan alloamlar bir tizimli usuldan foydalangan.

To'rtinchidan, «Tavobe'lar» mavzusi har ikkala kitobda ham asarning oxirgi, ya'ni ism va harf turkumlaridan so'ng beriladi. «Misbah»da bu mavzu ham shunday qoidalar ketma-ketligida qiyosiy va sama'iy omillardan keyin beriladi.

Beshinchidan, har bir e'robg'a ta'sir etuvchi so'zlar alohida fasllarga ajratib chiqilgan. «Misbah»da alohida katta boblar ichida fasllarga ajratib berilgan bo'lsa, Muqaddimada katta boblar ichida mustaqil kichik boblarga ajratilgan holda berilgan.

«Al-Muqaddima Al-Mutarriziya» va «Misbah»ning farqli tomonlari:

Ushbu asarlarning o'ziga xos o'xshashliklari bilan birga farqli tomonlari ham mavjud.

Birinchidan, bu asarning tartiboti va metodologik qarshlarida farq bor. «Misbah» omillar nazariyasi uslubida yozilgan bo'lsa, Muqaddima esa Bag'dod grammatika maktabi uslubida yozilgan asardir. Shu jihatdan ham e'rob borasida har bir so'zni e'robg'a ta'sir etuvchi boshqa so'zlar turkum jihatdan boblar yoki fasllarga bo'linishida farq qiladi. «Misbah» ta'sir etuvchi omillar nuqta-i nazaridan boblarga bo'lingan bo'lsa, Muqaddima ta'sir etiluvchilarning holati qanday bo'lishi tomonlama boblarga ajratilgan. Bu har ikkala asarning birlamchi farqli tomoni hisblanadi.

Ikkinchidan, «Misbah»da yuqoridagi birlamchi farqli tomondan kelib chiqib, so'zlarning e'robg'a ta'sir etuvchilar katta uch xil omillarga bo'linadi va ularning tarkibiy qismlari bo'lib keladi. Muqaddimada esa bu so'zlar alohida mustaqil bob ko'rinishida keladi.

Uchinchidan, tartibot jihatidan ham qoidalarining kelishi turli xildir. «La» inkor yuklamasi, sarflanuvchi so'zlar va sarflanmaydigan so'zlar kabi qoidalar Muqaddimada kitobning oxirida kelsa, «Misbah»da ular boshlanish va lafziy sama'iy omillar qismlarida keltirilgan.

Xulosa. Ilmiy tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, yuqorida nomi keltirilgan ikki arab tilshunosilik bilimlari sohiblari alloma Mutarriz va Mutarriziyalar turli davrlarda, turli hudud va uslublarda ijod etishganiga qaramay, arab tili nahv va sarf bilimlari rivojiga katta hissa qo'shganlar. Mutarrizning asosiy uslubiyati Bag'dod grammatika maktabi sohiblari uslubiyatining uzviy davomi bo'lib qolgan. Ibn Jinniy va Az-Zujajiyalarning yirik va mashhur asarlari uslubiga tayangan Mutarriz o'z davrida Yaqin Sharq hududlarida mashhur bo'lgan uslub bilan ijod etgani ma'lum bo'ladi. Bu metodning o'z navbatida rivojiga hissa qo'shgan allomalar orasida Abu Ali Al-Forisiy (901-987 y.y.), Abu Is'hoq Az-Zujaj (923 v.y.) va Abulabbos Al-Mubarrad (898 v.y.) kabi yirik allomalar bor. Ular o'z navbatida qiyosiy dalil maktabi bo'lmish Basra grammatika

maktabi vakillarining uslubini davom etturuvchilar hisoblanadilar. Abu Usmon Maziniy, Al-Axfash Al-Akbar kabi olimlar faoliyatlari mobaynida Sibavayhining shogirdlari hisoblanganlar va qiyosiy dalil sohiblarining eng mashhur va ishonchli kitobi bo‘limish “Al-Kitab”dan ta’lim berganlar. Bu sanad ichida Abu Ali Al-Forisiyning ta’limoti bo‘yicha uning jiyanidan ta’lim olgan alloma Abdulqohir Jurjoniyy hisoblanadi. Demak, Abulfath Mutarriziy Jurjoniyyning asaridan ilhomlangan holda omillar nazariyasi usulida qiyosiy dalil vakillarining ishini davom ettirishi shuni anglatadiki, Mutarriz ham, Mutarriziy ham turli davr va hudud allomalari bo‘lsalar-da, basriy maktabning qiyosiy dalil vakillarining uslubiyati davomchilari hisoblanadilar.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu ikki allomaing mashhur bo‘lishida asosiy faktor hisoblangan ularning asarlari ham ularning bilvosita ustozlarining asarlari nomi ham o‘xshashligida. Bu ikki allomaning shunday bir qator o‘xshash tomonlari ulardan keyingi davr vakillarida ularning kitoblarini bir-birlariga nisbat etishga undagan. Ammo, vaqt o‘tib ilmiy tahlillar natijasida ular asli boshqa-boshqa ustozlarning asarlari bo‘lganligi, ularning usullari turli xil ekanligi isbotlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Al-Omari, A. S. (2023). Mutarriziyatu li Abi Abdullah Muhammad bin Ali Sulami Dimashqi Mutarriz: Dirosatun va tahqiqun (The Mutarrizian study of Abu Abdullah Muhammad bin Ali Sulami Dimashqi: A study and investigation). Cairo. (in Arabic)
2. Talab, A. S. (2011). Al-Misbah fi ‘Ilm an-Nahw (The lamp in the science of syntax). Cairo. (in Arabic)
3. Fakhoury, M., & Mukhtar, A. (Eds.). (1979). Al-Mughrib fi Tartib al-Mu’rib (The informative in the order of the expressive). Aleppo, Syria. (in Arabic)
4. Al-Mutarriz, A. A. M. A. S. (2023). Al-Muqaddima Al-Mutarriziyya (The Mutarrizian introduction). Cairo. (in Arabic)
5. Al-Mutarrizi, N. A. F. (2001). Kitab al-Misbah (The book of the lamp). Cairo. (in Arabic)
6. Al-Mutarrizi, N. A. F. (2011). Kitab al-Mughrib fi Tartib al-Mu’rib (The book of the informative in the order of the expressive). Beirut. (in Arabic)
7. Al-Yafi’i, A. (1997). Mir’at al-Jinan wa ‘Ibrat al-Yaqzan fi Ma’rifat ma Yu’tabaru min Hawadith az-Zaman (Mirror of the heavens and lesson for the vigilant in knowing the events of time). Beirut. (in Arabic)
8. Az-Zujaji, A. Q. (n.d.). Al-Jumal (The sentences). (in Arabic)